



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2023 - yil 2 - oktabr

446-4-0-Q/23

Qashqadaryo viloyati hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-sentyabrdagi “Onalar
va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv
salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-296-son
qarori haqida**

Viloyatda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, tibbiyot muassasalarining samarali boshqaruv tizimini yaratish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-sentyabrdagi “Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-296-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-sentyabrdagi “Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-296-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:

Onalar va bolalar hamda aholi reproduktiv salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi [1-ilovaga](#);

2023-2027-yillarda bolalarda tug‘ma va irsiy kasalliklarni erta aniqlash dasturi

2-ilovaga;

2023-2027-yillarda tugʻuruq komplekslarida qoʻshimcha kiritiladigan tugʻuruq oʻrinlari soni **3-ilovaga;**

Hududiy tibbiyot muassasalari uchun xarid qilinishi rejalashtirilgan tibbiy jihozlar taqsimoti **4, 4a-4o-ilovalarga muvofiq** tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Viloyat sogʻliqni saqlash boshqarmasi (B.Teshayev), Markazning Qashqadaryo filiali (B.Shodiyev)ga:

xavf omillari aniqlangan ayollarni tibbiy tekshiruvdan oʻtkazsin, ularni davolash choralarini koʻrsin hamda zarur hollarda respublika darajasidagi tibbiyot muassasalariga yoʻnaltirsin;

nikohlanuvchilar, homilador va tugʻish yoshidagi ayollar hamda chaqaloqlarni molekulyar tibbiy-genetik tekshiruvlardan oʻtkazsin;

irsiy kasalliklar aniqlangan bolalarni maxsus dori vositalari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlasin;

sogʻlom oilani rejalashtirish hamda istalmagan homiladorlikning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirsin.

4. Viloyat hokimining oʻrinbosari A.Qobilov, viloyat Sogʻliqni saqlash boshqarmasi (B.Teshayev), tuman (shahar) hokimlariga:

bir hafta muddatda, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish boʻyicha viloyat va tuman (shahar) kesimida “yoʻl xaritasi”ni ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

ushbu tasdiqlangan “yoʻl xaritasi”da belgilangan tadbirlarni oʻz vaqtida va samarali ijro etish yuzasidan shaxsiy masʼuliyat yuklansin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining oʻrinbosari A.Qobilov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



M.Azimov